

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL  
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
<b>Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich</b>	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES .....	20
<b>Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li</b>	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
<b>Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	30
<b>Nosirova Kamola Alimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH .....	39
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	44
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
<b>Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
<b>Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi</b>	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	64
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
<b>Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov</b>	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILIYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI .....	92
<b>Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li</b>	
INVESTITSYALAR BUXGALTERIYA HISOBİ OBYEKTI SIFATIDA.....	99
<b>I.Boymurodov</b>	
TA‘LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	103
<b>Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI .....	110
<b>Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira</b>	



TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL TAHLILI .....	115
<b>Almuradov Ne'mat Abdullayevich</b>	
SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IQTISODIY MEXANIZMLARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	123
<b>Kuzieva Nargiza Ramzanovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DAVLAT MULKINI BOSHQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....	130
<b>Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISHLAB CHIQRARISH TARMOQLARIDA SANOAT 4.0 MODELIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI.....	136
<b>Komilova Dilafruz Rustam qizi</b>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA AMALIY IQTISODIYOTNING INTEGRATSION MEXANIZMI ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	141
<b>Bobojonova Zarnigor Shokirovna</b>	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	149
<b>Axmedov Umidjon</b>	
NMSH TURIDAGI RELELARNING TEXNIK TAVSIFLARINI TEKSHIRISH UCHUN STEND ISHLAB CHIQISH. ....	156
<b>Raxmonov Bobomurod, Qodirov Azamat, Yusupova Shirin, Mirzaraxmedov Zafar</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ВЛИЯНИЯ КЛАСТЕРОВ ИНДУСТРИИ РАЗВЛЕЧЕНИЙ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ (ЗАНЯТОСТЬ, ДОХОДЫ, ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТОК, НАЛОГОВЫЕ ПОСТУПЛЕНИЯ): КРИТЕРИИ И МЕТОДЫ ОЦЕНКИ .....	163
<b>Султонмуродов Мирзо-Улугбек Мукумжон углы</b>	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЦЕНТРАХ: ПРИМЕНЕНИЕ AI-ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ГРУПП.....	170
<b>Джамолова Хилола Исматиллаевна, Алимова Машхура Тоирхоновна</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI .....	175
<b>Ulmasova Oygul Baxtiyorovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	181
<b>Raxmanov Zafar Yashinovich</b>	
КРЕАТИВНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЕСЕЛ В УЗБЕКИСТАНЕ	187
<b>Хушназарова Махзуна Гуламджановна</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING XALQARO TURIZM OQIMLARIGA TA'SIRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MINTAQAVIY TAHLIL .....	193
<b>Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
ФОРМИРОВАНИЕ И НАКОПЛЕНИЕ ПЕРВЫХ МЕДИЦИНСКИХ ЗНАНИЙ .....	200
<b>Рахматуллаева Фотима Султонмуродовна</b>	
SAVDO KORXONALARIDA SEGMENTLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASHNING USLUBIY ASOSLARI .....	206
<b>Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna</b>	
SAVDO KORXONALARIDA SEGMENTLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASHNING USLUBIY ASOSLARI .....	206
<b>Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ НИТРООКСИДИРОВАНИЯ НА СТРУКТУРУ И ЭКСПЛУАТАЦИОННЫЕ СВОЙСТВА КОНСТРУКЦИОННЫХ СТАЛЕЙ .....	212
<b>Бойназаров Урол Равшанович</b>	



SANOAT ISHLAB CHIQRISHI VA IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'SIRI ....	219
<b>Pardayev Orifjon Charshamiyevich</b>	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA FISKAL INSTRUMENTLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING AMALIY JIHATLARI .....	224
<b>Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich</b>	
RAQAMLI TAFOVUT (DIGITAL DIVIDE) VA UNING QISHLOQ HUDUDLARIDA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRI (ISH KUCHI VA KAPITAL HAQIDAGI IQTISODIY NAZARIYA DOIRASIDA).....	230
<b>O'rozaliyev Elyor Shuxrat o'g'li</b>	
THE ESSENCE AND PLACE OF LOGISTICS IN THE SYSTEM OF THE NEW MARKET ECONOMY OF UZBEKISTAN .....	236
<b>Musayeva Shoira Azimovna</b>	
MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA XARAJATLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	241
<b>Soibbekov Abdulvosit, Teshaboyev Xushnud</b>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.....	247
<b>Amonov Muhsin Erkinovich</b>	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING RISKLARNI ANIQLASH VA BAHOLASHDAGI O'RNI.....	251
<b>Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li</b>	
PARRANDACHILIK SOHASINING ZARURATI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	255
<b>Hayitnazarova Holida Bekmurzayevna</b>	
AHOLI TURMUSH TARZINI YAXSHILASHDA KO'P QAVATLI TURAR JOY MAJMUALARI JOYLASHUVINING EKONOMETRIK MODELLARI: JAHON TAJRIBASI .....	265
<b>Farmonov Bobur Davronovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: ELEKTR ENERGETIKASI TARMOG'INING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	277
<b>Djurayev Davlat Djonibekovich</b>	
HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	281
<b>Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich</b>	
ZAMONAVIY UY-JOY FONDI BOSHQARUVIGA YO'NALTIRILGAN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TASHKIL ETISH STRATEGIYASI .....	285
<b>Berdiyeva Dilfuza Axatovna</b>	
УПРАВЛЕНИЕ КРЕДИТНЫМ РИСКОМ В СИСТЕМЕ РОЗНИЧНОГО БАНКОВСКОГО КРЕДИТОВАНИЯ.. ..	290
<b>Базарова Нигопа</b>	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHİYATINI BAHOLASH USULLARI.....	297
<b>Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li</b>	
MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNING XALQARO ISO STANDARTLARI TIZIMINING XUSUSIYATLARI ... ..	301
<b>Atakulov Askad Raimkulovich</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING XALQARO TURIZM OQIMLARIGA TA'SIRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MINTAQAVIY TAHLIL .....	308
<b>Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
MENEJMENTDA XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI TAMOYILLARINI QO'LLASH VA UNING XODIMLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI.....	316
<b>Axmadov Shukurbek Farruxovich, Urinov Bobur Nasilloevich</b>	
O'ZBEKISTONDA E-TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH: 2026-YIL ISLOHOTLARI TAHLILI VA SAMARADORLIGI.....	322
<b>Aripova Aziza Alisherovna, Raximova Shaxlo Rajapboevna</b>	
YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....	326
<b>Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li</b>	



AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZLARI FAOLIYATIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI: NAZARIY MODEL DAN AMALIYOT TAHLILIGA .....	331
<b>Grebenyuk Martin Valentinovich</b>	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARUV HISOBI ASOSIDA OMILLARGA ASOSLANGAN BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	335
<b>Xushvaqтова Nozanin Nurbek qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TO‘LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA BANK SEKTORIGA TA’SIRI: 2015–2025 YILLAR EMPIRIK TAHLILI.....	342
<b>Safarova Gulruh Akmal qizi, Maqsudov Bunyod Abdusamat o‘g‘li</b>	
TAQSIMLASH TARMOQLARIDAGI TRANSFORMATORLAR ISHONCHLILIGINI OSHIRISH VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISHDA AVTOMATLASHTIRILGAN MONITORING TIZIMLARINING O‘RNI .....	348
<b>Toirov O.Z., Sh.N. Xudoberdiyev</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЭФФЕКТЫ И РИСКИ ЦИФРОВОГО ИСКЛЮЧЕНИЯ .....	353
<b>Шоахмедов Шохрух Шорахимович</b>	
QISHLOQ XO‘JALIGI SUBYEKTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI YURITISH XUSUSIYATLARI .....	358
<b>Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich, Hamroyeva Feruza Azizjon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI ORQALI DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI .....	362
<b>Shodiyev Shuhrat Sunnat o‘g‘li</b>	
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI BAHOLASH: MDH DAVLATLARI PANEL MA‘LUMOTLARI ASOSIDA (2000–2021).....	367
<b>Saydullayev Azamat Jo‘raqul o‘g‘li</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	377
<b>Nasirova Kamola Alimovna</b>	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA MARKETING AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI .....	386
<b>Uzakova Umida Ruziyevna</b>	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ КАК ОСНОВА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	392
<b>Юлдашева С.Ш.</b>	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA “YASHIL” INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ASOSIDA RESURS SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	397
<b>I. Mahammadiyeva</b>	
SAVDO KORXONALARINI BOSHQARUV TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH SHART-SHAROITLARI ...	402
<b>B. Sulaymonov</b>	
PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF DIGITAL BANKING SERVICES IN BANKS: TAXONOMY OF BARRIERS AND THEIR INTERDEPENDENCIES.....	408
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
RAQAMLI VA YASHIL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	415
<b>Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich</b>	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH REJIMIDA TOVARLAR HARAKATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	422
<b>Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich</b>	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARIDA YASHIRIN IQTISODIYOT TA’SIRI VA UNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI.....	429
<b>Umarov Ilhomjon Yuldashevich, Ubaydullayev Ziyodullo Habibullo o‘g‘li</b>	



# MAHALLIY BUDJET DAROMADLARIDA YASHIRIN IQTISODIYOT TA'SIRI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI

**Ilmiy rahbar: Umarov Ilhomjon Yuldashevich**

Andijon davlat texnika instituti  
"Menejment" kafedrasini mudiri, professor

**Ubaydullayev Ziyodullo Habibullo o'g'li**

Andijon davlat texnika instituti  
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda iqtisodiy shaffoflikning o'rni hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishning istiqbolli yo'llari tahlil qilingan. Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining muhim bo'g'ini sifatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish, soliq bazasini kengaytirish va iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlash orqali budjet tushumlarini barqarorlashtirish omillari yoritilgan. Shuningdek, soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda jamoatchilik nazorati va soliq madaniyatini kuchaytirish kabi hududiy rivojlanishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy budjet, soliq tushumlari, iqtisodiy shaffoflik, soliq ma'murchiligi, raqamli iqtisodiyot, fiskal barqarorlik.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье анализируется роль экономической прозрачности в формировании доходов местных бюджетов, а также перспективные пути совершенствования налогового администрирования. Местные бюджеты, являясь важным звеном государственной финансовой системы, выступают основным источником финансирования социально-экономического потенциала регионов. В статье освещены факторы стабилизации бюджетных поступлений за счет цифровизации экономики, расширения налоговой базы и обеспечения прозрачности экономических процессов. Также рассмотрены стратегические направления, способствующие региональному развитию, такие как модернизация налогового администрирования, широкое внедрение современных цифровых технологий, а также усиление общественного контроля и налоговой культуры.

**Ключевые слова:** местный бюджет, налоговые поступления, экономическая прозрачность, налоговое администрирование, цифровая экономика, фискальная устойчивость.

**Abstract.** This article analyzes the role of economic transparency in the formation of local budget revenues, as well as promising ways to improve tax administration. Local budgets, as an important link in the state financial system, serve as the main source of financing for the socio-economic potential of the regions. The article highlights the factors of stabilizing budget revenues through the digitalization of the economy, the expansion of the tax base, and ensuring the transparency of economic processes. It also examines strategic directions that contribute to regional development, such as the modernization of tax administration, the widespread introduction of modern digital technologies, as well as the strengthening of public control and tax culture.

**Keywords:** local budget, tax revenues, economic transparency, tax administration, digital economy, fiscal sustainability.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri davlat moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, budjet daromadlarini to'liq shakllantirish hamda iqtisodiyotda shaffoflikni oshirishdan iboratdir. Ushbu jarayonda mahalliy budjetlar hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtiruvchi asosiy moliyaviy manba sifatida muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga muvofiq, budjet tizimining asosiy prinsiplari ochiqlik, shaffoflik, samaradorlik va javobgarlikdan iborat bo'lib, ushbu tamoyillar mahalliy budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi [1]. Shu bilan birga, iqtisodiyotda norasmiy sektorning mavjudligi budjet tizimi barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solishni taqozo etadi. Iqtisodiy faoliyatni to'liq rasmiylashtirish va daromadlarni shaffof tarzda deklaratsiya qilish soliq bazasini kengaytirish, budjet daromadlarini oshirish hamda iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda 2020-2025-yillarga mo'ljallangan soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida iqtisodiyotda shaffoflikni oshirish, norasmiy sektor ulushini kamaytirish va soliq intizomini mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2]. Ushbu hujjatlarda raqamli iqtisodiyotga o'tish, elektron hisob-fakturalar tizimini keng joriy etish va soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish orqali iqtisodiyotni yanada ochiq va shaffof qilish zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi [3]. Ushbu hujjatga ko'ra, soliq tizimida raqamlashtirish darajasini oshirish, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarni soddalashtirish hamda soliq nazoratini zamonaviy texnologiyalar asosida avtomatlashtirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning majburiyatlari, soliq bazasini to'liq shakllantirish va iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlash bo'yicha aniq normalar belgilab qo'yilgan [4]. Xususan, soliq to'lovchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning daromadlarini to'liq hisobga olish mexanizmlari joriy etilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-178-son qarori asosida "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlash, budjet tushumlarini barqaror o'stirish va iqtisodiyotni raqamli mexanizmlar asosida boshqarishning zamonaviy tizimlarini shakllantirmoqda [5].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda iqtisodiy shaffoflikni ta'minlash masalasi zamonaviy iqtisodiy fanlarda keng o'rganilgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon davlat moliya tizimining barqarorligi, soliq tushumlarining to'liqligi hamda iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiyotni to'liq qamrab olish va barcha moliyaviy oqimlarni rasmiy statistik hisobga kiritish masalalari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlar, jumladan, E.Shnayder va F.Enste o'z tadqiqotlarida soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish hamda iqtisodiy rag'batlarni kuchaytirish orqali soliq bazasini kengaytirishning ahamiyatini asoslab berganlar [6]. Ularning fikricha, iqtisodiy jarayonlarning rasmiy sektor ulushini oshirish davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, D.Tanzi soliq tizimini mukammallashtirish va soliq ma'murchiligini ixchamlashtirish orqali budjet tushumlarini oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlagan [7].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar doirasida iqtisodiyotni yanada shaffoflashtirishga qaratilgan farmon va qarorlar ilmiy adabiyotlarda ijobiy baholanmoqda. Xususan, soliq tizimini raqamlashtirish, elektron hisob-faktura va onlayn kassa tizimlarining keng joriy etilishi iqtisodiy faoliyatni to'liq qamrab olish hamda budjet daromadlarini barqaror shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi hamda mahalliy budjet daromadlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali iqtisodiy rivojlanishning rasmiy ko'rsatkichlari solishtirildi. Statistik tahlil yordamida soliq tushumlari va iqtisodiy faollik bo'yicha raqamli ma'lumotlar chuqur o'rganildi. Shuningdek, induksiya va deduksiya metodlari orqali umumiy iqtisodiy tendensiyalardan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi. Empirik kuzatuv usuli yordamida amaliy ma'lumotlar asosida iqtisodiy shaffoflikning budjet daromadlariga ijobiy ta'siri baholandi. Mazkur tadqiqot metodlari maqolaning ilmiy jihatdan asoslangan va ishonchli natijalarga erishishiga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda iqtisodiy shaffoflikning o'rnini chuqur tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Soliq qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlarga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, mamlakat iqtisodiyotida rasmiy sektor ulushini yanada kengaytirish uchun katta salohiyat mavjud bo'lib, u yalpi ichki mahsulotning 20-30 foizi atrofida shakllanib kelmoqda [8]. Bu ko'rsatkich iqtisodiyotning sezilarli qismini rasmiy statistik hisobga to'liq qamrab olish orqali mahalliy budjetlar daromad bazasini yanada mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.



2025-yilning dastlabki yakuniy ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat budjetining umumiy daromadlari tarkibida soliq tushumlari ulushi 75–80 foizni tashkil etgan bo'lsa, mahalliy budjetlar daromadlarida ushbu ko'rsatkich 60–70 foiz atrofida qayd etilgan. Bu tafovut hududiy budjetlarning daromad salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va soliq bazasini yanada samarali qamrab olish uchun strategik zaxiralar mavjudligini ko'rsatadi. Natijada hududiy budjetlar o'z daromad imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqish imkoniga ega bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy shaffoflik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda soliq tushumlarining o'sish sur'ati sezilarli darajada barqaror bo'ladi. Masalan, rasmiy iqtisodiy sektor ulushi yuqori hududlarda soliq tushumlari yillik 12–15 foizgacha o'sayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda ham iqtisodiy faollikni oshirish orqali bu ko'rsatkichni yuqori darajalarga yetkazish mumkin. Bu esa iqtisodiy shaffoflik va soliq intizomi darajasi bilan budjet daromadlari o'rtasida o'zaro samarali bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra [9], 2024–2025-yillar davomida elektron hisob-faktura tizimi, onlayn nazorat-kassa mashinalari hamda raqamli soliq platformalarining joriy etilishi natijasida iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash bo'yicha yuqori natijalarga erishilgan. Xususan, elektron fiskal tizim qamrovi 2023-yilda 85 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 93 foizga yetgan. Ushbu o'sish soliq tushumlarining shaffofligini oshirishga va barcha iqtisodiy operatsiyalarni raqamli maydonga o'tkazishga xizmat qilgan.

Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibini tahlil qilganda, eng katta ulushni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (35–40 foiz), yuridik shaxslar foyda solig'i (20–25 foiz) hamda yer va mol-mulk soliqlari (10–15 foiz) tashkil etishi aniqlanadi. Aynan shu soliq turlari bo'yicha iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish va daromadlarni to'liq deklaratsiya qilish soliq tushumlarini oshirishning asosiy manbalaridan hisoblanadi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, rasmiy bandlik darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiy segmentlarda budjet daromadlarini 15–20 foizgacha o'stirish uchun qo'shimcha salohiyat mavjud. Ayniqsa, qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida bu holat yaqqol seziladi. Masalan, qurilish sektorida rasmiy iqtisodiyot ulushini yanada oshirish orqali soliq tushumlarini sezilarli darajada boyitish mumkin. Savdo sohasida esa naqd pulsiz hisob-kitoblarning yuqori ulushi iqtisodiyot uchun qulay va shaffof sharoit yaratadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot va soliq ma'murchiligini takomillashtirish daromad bazasini kengaytirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. 2022–2025-yillar oralig'ida elektron soliq tizimlarining keng joriy etilishi natijasida soliq bazasi o'rtacha 18–22 foizga kengaygan. Bu esa budjet daromadlarining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, naqd pulsiz to'lov tizimlarining rivojlanishi ham iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, mamlakatda naqd pulsiz to'lovlar ulushi 70 foizdan oshgan bo'lib, bu iqtisodiyotning bosqichma-bosqich raqamlashtirilayotganini ko'rsatadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi pul aylanmasini boshqarishni osonlashtiradi va iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlaydi.

Qo'shimcha ravishda, jamoatchilik nazorati va soliq madaniyatining oshishi ham muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda soliq to'lovchilarning huquqiy ongini oshirish bo'yicha o'tkazilgan targ'ibot ishlari natijasida ixtiyoriy soliq to'lash darajasi 10–12 foizga oshgani qayd etilgan. Bu esa iqtisodiyotda institutsional va ijtimoiy mexanizmlarning uyg'unlashuvi budjet barqarorligini ta'minlashda muhimligini ko'rsatadi.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda iqtisodiy shaffoflikning o'rnini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu omil nafaqat fiskal barqarorlikka, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishning umumiy dinamikasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotdagi moliyaviy oqimlarni to'liq rasmiylashtirish va statistik hisobga qamrab olish mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini yanada yuqori darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida soliq bazasini yanada kengaytirish va iqtisodiy faoliyatni to'liq qamrab olishning istiqbolli yo'llari ko'rib chiqiladi. Mahalliy budjet daromadlarida soliq tushumlarining ulushini oshirish orqali hududlarda ijtimoiy xarajatlar, infratuzilma loyihalari va investitsion dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlari yanada kengayadi. Bu, ayniqsa, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi sohalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Yana bir muhim jihat sifatida mehnat bozorini rasmiylashtirish va norasmiy bandlikni qisqartirish qayd etiladi. Qurilish va xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy faoliyatni to'liq huquqiy maydonga o'tkazish ushbu tarmoqlarda soliq intizomini mustahkamlashga, ish o'rinlarini qonuniy rasmiylashtirishga hamda daromadlarni shaffof tarzda deklaratsiya qilishga xizmat qiladi. Natijada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha budjet tushumlarining barqaror o'sishiga erishiladi.

Muhokamada raqamli texnologiyalarning roliga alohida e'tibor qaratish lozim. Elektron fiskal tizim qamrovining 85 foizdan 93 foizga yetishi iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni soliq to'lovchilar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini yaratadi va bu orqali soliq hisob-kitoblarning aniqligi va shaffofligi oshadi. Shu bilan birga, elektron hisob-faktura va onlayn kassa tizimlari budjet tushumlarining barqarorligini ta'minlamoqda. Mavjud natijalarni yanada rivojlantirish maqsadida kichik savdo nuqtalari, xizmat ko'rsatish sektori va naqd pul aylanmasi yuqori bo'lgan faoliyat turlarida raqamli monitoring mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda institutsional islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida soliq madaniyati va ijtimoiy ong darajasini yuksaltirish ko'rib chiqiladi. Aholi va tadbirkorlarning soliq to'lashga bo'lgan ijobiy munosabati budjet daromadlarining

barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Soliq intizomini yuksaltirish muhitini yaratish orqali iqtisodiyotning rasmiy sektorini yanada kengaytirish mumkin. Shu sababli soliq tizimida nafaqat texnik, balki ijtimoiy-ma'rifiy yondashuvlarni ham rivojlantirish zarur. Shuningdek, muhokamada budget siyosatining hududiy salohiyatni to'liq ochib berishga qaratilgani ham muhim o'rin tutadi. Ayrim hududlarda iqtisodiy faollikni yanada jadallashtirish va soliq tushumlari o'sish sur'atlarini oshirish orqali hududiy iqtisodiy salohiyatni to'liq ishga solish mumkin. Shu jihatdan hududiy soliq ma'murchiligini kuchaytirish va mahalliy darajada fiskal mustaqillikni oshirish iqtisodiy rivojlanishning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va naqd pulsiz iqtisodiyot ulushini kengaytirish mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu yo'nalishlarni izchil davom ettirish orqali soliq bazasini kengaytirish, budget tushumlarini yanada barqaror o'stirish hamda hududiy iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash mumkin bo'ladi. Shu sababli iqtisodiy shaffoflikni ta'minlash mahalliy budget daromadlarini mustahkamlashning eng muhim va strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida iqtisodiyotni to'liq rasmiylashtirish mahalliy budget daromadlarining barqaror shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Shu bois budget barqarorligini yanada oshirish va hududiy salohiyatni to'liq ishga solish uchun quyidagi asosiy takliflar ilgari suriladi:

**Birinchidan**, soliq ma'murchiligini yanada raqamlashtirish va barcha xo'jalik operatsiyalarini elektron tizimga to'liq o'tkazish zarur. Elektron hisob-faktura, onlayn kassa va raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlash va soliq bazasini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

**Ikkinchidan**, naqd pulsiz to'lov tizimlarini kengaytirish va rag'batlantirish lozim. Bank kartalari, mobil to'lovlar va POS-terminallar ulushini oshirish orqali iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlash hamda budget daromadlarining barqaror o'sishiga erishish mumkin.

**Uchinchidan**, soliq intizomini kuchaytirish va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha targ'ibot ishlarini kengaytirish zarur. Aholi va tadbirkorlar orasida soliq madaniyatini yuksaltirish, soliq to'lashning qulay va shaffof mexanizmlarini targ'ib qilish budget barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. <https://lex.uz/docs/-2304138>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5077461>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4411130>
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/-4674902>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon banki ishtirokidagi "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-178-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5934575>
6. Schneider F., Enste D.H. The Shadow Economy: Size, Causes, and Consequences. <https://doi.org/10.1257/jel.38.1.77>
7. Tanzi V. Uses and Abuses of Estimates of the Underground Economy. <https://doi.org/10.1111/1468-0297.00424>
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. <https://soliq.uz>

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)